Philology Matters / ISSN: 1994 – 4233 / E-ISSN: 2181–1237
Uzbekistan State World Languages University
2026 Vol. 1 No. M 3
LINGUISTICS
DOI: 10.36078/987656183

Maxliyo Azimova

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Toshkent, O‘zbekiston
E-mail: aziimovam@gmail.com
ORCID: https://orcid.org/0009-0005-7644-1261

Ilmiy rahbar: Baxodir Odilov – PhD, dotsent

“REVIVE YOUR HEART” ASARI MISOLIDA DINIY TERMINLAR TARJIMASIDA SUN’IY INTELLEKT VA INSON TARJIMASINING QIYOSIY TAHLILI

Annotatsiya. Mazkur maqolada ingliz tilidagi diniy terminlarning o‘zbek tiliga sun’iy intellekt va professional inson tarjimasi orqali berilish xususiyatlari qiyosiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot materiali sifatida No‘mon Ali Xonning *Revive Your Heart* asari hamda uning o‘zbek tilidagi professional tarjimasi *Qalbingni uyg‘ot* tanlandi. Tahlilda professional tarjima bilan bir qatorda ChatGPT (GPT-5.5) va Gemini tomonidan yaratilgan tarjimalar ham o‘rganildi. Tadqiqotda qiyosiy-tahliliy, tavsifiy, leksik-semantik va pragmatik tahlil metodlaridan foydalanildi. Asardan tanlab olingan to‘qqizta mikromatn tarkibidagi o‘n bitta diniy va diniy-madaniy termin tarjimalari semantik aniqlik, pragmatik moslik hamda qo‘llanilgan tarjima strategiyalari nuqtayi nazaridan baholandi. Natijalar sun’iy intellekt modellarining o‘zbek tilidagi barqaror diniy terminlarni yuqori aniqlik bilan tarjima qila olishini ko‘rsatdi. Shu bilan birga, diniy formulalar, madaniy xususiyatga ega birliklar hamda izoh talab qiluvchi terminlar tarjimasida professional tarjimada madaniy moslashtirish ustun bo‘lsa, sun’iy intellekt modellarida manba matn terminologiyasini saqlashga ko‘proq e’tibor qaratilishi aniqlandi. Tadqiqot natijalari diniy matnlarni tarjima qilishda sun’iy intellektdan samarali yordamchi vosita sifatida foydalanish mumkinligini, biroq yakuniy tarjimani mutaxassis tomonidan tahrir qilish zarurligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: diniy terminlar, sun’iy intellekt, ChatGPT, Gemini, tarjimashunoslik, diniy diskurs, leksik-semantik tahlil, pragmatik ekvivalentlik.

Махлиё Азимова

Узбекский государственный университет мировых языков
Ташкент, Узбекистан

Научный руководитель: Одилов Баходир – PhD

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ПЕРЕВОДА РЕЛИГИОЗНЫХ ТЕРМИНОВ ИСКУССТВЕННЫМ ИНТЕЛЛЕКТОМ И ЧЕЛОВЕКОМ-ПЕРЕВОДЧИКОМ НА МАТЕРИАЛЕ ПРОИЗВЕДЕНИЯ “REVIVE YOUR HEART”

Аннотация. В статье представлен сравнительный анализ перевода религиозных терминов с английского языка на узбекский язык средствами искусственного интеллекта и профессионального человеческого перевода. Материалом исследования послужило произведение Нумана Али Хана *Revive Your Heart* и его профессиональный узбекский перевод *Qalbingni uyg‘ot*. Для сопоставительного анализа использовались переводы, выполненные

профессиональным переводчиком, а также системами ChatGPT (GPT-5.5) и Gemini. В исследовании применены сравнительно-сопоставительный, описательный, лексико-семантический и прагматический методы анализа. Объектом исследования стали одиннадцать религиозных и религиозно-культурных единиц, отобранных из девяти микротекстов произведения. Переводы оценивались с точки зрения семантической точности, прагматической адекватности и сохранения религиозно-концептуального содержания. Результаты показали, что модели искусственного интеллекта успешно передают устойчивые религиозные термины, широко используемые в узбекском исламском дискурсе. Вместе с тем при переводе религиозных формул, культурно маркированных единиц и терминов, требующих пояснения, выявлены существенные различия между профессиональным и машинным переводом. Профессиональный перевод ориентирован преимущественно на культурную адаптацию текста, тогда как модели искусственного интеллекта стремятся сохранить терминологическую систему оригинала. Полученные результаты подтверждают перспективность использования искусственного интеллекта в качестве вспомогательного инструмента при переводе религиозных текстов при обязательном участии профессионального переводчика на завершающем этапе.

Ключевые слова: религиозные термины, искусственный интеллект, ChatGPT, Gemini, переводоведение, религиозный дискурс, лексико-семантический анализ, прагматическая эквивалентность.

Makhliyo Azimova

Uzbekistan State World Languages University
Tashkent, Uzbekistan

Scientific supervisor: Bakhodir Odilov – PhD

A COMPARATIVE ANALYSIS OF RELIGIOUS TERM TRANSLATION BY ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND HUMAN TRANSLATORS: A CASE STUDY OF *"REVIVE YOUR HEART"*

Abstract. This article presents a comparative analysis of the translation of English religious terms into Uzbek by artificial intelligence systems and a professional human translator. The research is based on *Revive Your Heart* by Nouman Ali Khan and its published Uzbek translation *Qalbingni uyg'ot*. The study compares translations produced by a professional translator with those generated by ChatGPT (GPT-5.5) and Gemini. Comparative, descriptive, lexical-semantic, and pragmatic methods were employed to evaluate the translation strategies used for eleven religious and religious-cultural terms extracted from nine representative microtexts. The analysis focuses on semantic accuracy, pragmatic appropriateness, and the preservation of religious and cultural meanings. The findings indicate that large language models accurately translate well-established religious terms commonly used in Uzbek Islamic discourse. However, significant differences appear in the translation of religious formulas, culturally specific expressions, and explanatory terminology. Professional translation primarily emphasizes cultural adaptation and natural target-language expression, whereas AI-generated translations preserve the source-text terminology more consistently. The study concludes that artificial intelligence can effectively support the translation of religious texts, but professional human revision remains essential to ensure doctrinal accuracy, cultural appropriateness, and pragmatic equivalence. These findings contribute to research on AI-assisted translation in low-resource languages and offer practical implications for religious translation studies.

Keywords: religious terminology, artificial intelligence, ChatGPT, Gemini, translation studies, religious discourse, lexical semantics, pragmatic equivalence.

KIRISH

Sun’iy intellekt texnologiyalarining tarjima amaliyotiga keng joriy etilishi diniy matnlar tarjimasi sifatini qayta baholash zaruratini yuzaga keltirdi. Ayniqsa, diniy terminlarning semantik, pragmatik va madaniy xususiyatlarini sun’iy intellekt hamda inson tarjimasi vositasida qay darajada adekvat ifodalash masalasi zamonaviy tarjimashunoslikning dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bugungi tarjimashunoslikda tarjima faqat til birliklarini bir tildan ikkinchi tilga o‘tkazish emas, balki madaniy, diniy va kommunikativ ma’nolarni qayta yaratish jarayoni sifatida talqin qilinadi. Shu bois diniy diskurs tarjimasida nafaqat leksik ekvivalentlik, balki diniy-konseptual mazmun va pragmatik ta’sirni saqlash ham muhim ahamiyat kasb etadi [Nida & Taber, 1969; 12-18; Newmark, 1988; 22-31].

Diniy terminlar ko‘pincha to‘g‘ridan-to‘g‘ri lug‘aviy ekvivalent orqali to‘liq ifodalanmaydigan semantik va konseptual qatlamlarga ega. Shu sababli ularni tarjima qilishda terminning lug‘aviy ma’nosi bilan bir qatorda uning matndagi funksiyasi, pragmatik vazifasi hamda maqsadli auditoriyaga ko‘rsatadigan kommunikativ ta’siri ham hisobga olinishi lozim [Baker, 1992; 217-220; Ali, Jarrah & Al-Jabri, 2024; 10-11].

So‘nggi yillarda sun’iy intellektga asoslangan katta til modellari (Large Language Models – LLM), jumladan ChatGPT va Gemini, tarjima amaliyotida keng qo‘llanila boshladi. LLM texnologiyalari an’anaviy neyron mashina tarjimasidan (Neural Machine Translation – NMT) tashqari, kontekstni chuqurroq tahlil qilish va murakkab semantik munosabatlarni qayta ishlash imkoniyatini yaratgani sababli tarjima sifatini oshirishda muhim bosqich sifatida e’tirof etiladi [Siu, 2024; 30-31]. Ushbu modellar diniy matnlar tarjimasida ham faol sinovdan o‘tkazilmoqda, biroq ularning diniy terminlarning semantik, pragmatik va madaniy xususiyatlarini qay darajada saqlab qolishi hali ham dolzarb tadqiqot masalasi bo‘lib qolmoqda. [Siu, 2024; 43-47]. O‘zbek tili katta til modellari uchun past resursli (low-resource) tillardan biri hisoblanadi. Modellarni o‘qitish jarayonida o‘zbek tilidagi annotatsiyalangan korpuslar va yuqori sifatli til resurslari hajmi nisbatan cheklangan bo‘lib, bu holat katta til modellarining ishlash samaradorligiga ta’sir ko‘rsatadi [Sharipov va boshq., 2022; 1-2; Mukhamadiyev va boshq., 2023; 2-3]. Shu sababli ingliz tilidagi diniy matnlarni o‘zbek tiliga tarjima qilishda sun’iy intellektning samaradorligi uning o‘zbek tilida shakllangan diniy diskurs me’yorlari va terminologik an’analarni qay darajada tiklay olishi bilan belgilanadi. Xususan, *ṣabr, duʿā’, rizq, raḥmah, kabā’ir, aḥkām, āyāh, tawāṣī, in shā’ Allāh taʿālā* hamda *ʿazza wa-jall* kabi diniy termin va formulalarning o‘rnashgan ekvivalentlar orqali berilishi yoki transliteratsiya, kalka, izohli tarjima hamda semantik moslashtirish strategiyalarining qo‘llanishi alohida ilmiy qiziqish uyg‘otadi.

Mazkur tadqiqot materiali sifatida No‘mon Ali Xonning *Revive Your Heart* asari va uning o‘zbek tilidagi *Qalbingni uyg‘ot* tarjimasi (Muhammad Shox Ibrohim va Komil Umar. – Toshkent: «Kitobdornashr», 2023) tanlandi. Asar diniy-ma’naviy terminlarga boyligi bilan ajralib turadi, professional tarjima qiyosiy tahlil uchun asosiy taqqoslash materiali sifatida qabul qilindi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda ingliz tilidagi diniy terminlarning o‘zbek tiliga tarjimasi ilk bor professional inson tarjimasi hamda zamonaviy katta til modellari, ChatGPT (GPT-5.5) va Gemini natijalari asosida qiyosiy tahlil qilindi. Tadqiqot davomida diniy terminlarni tarjima qilish strategiyalari, semantik aniqlik, pragmatik moslik hamda madaniy moslashtirish omillari kompleks baholandi. Shuningdek, o‘zbek tili past resursli til sifatida sun’iy intellekt tarjimasining imkoniyatlari va cheklovlari diniy diskurs misolida yoritildi.

Tadqiqotning maqsadi ingliz tilidagi diniy terminlarning o‘zbek tiliga professional inson tarjimasi hamda sun’iy intellekt modellarida qanday ifodalanishini qiyosiy jihatdan tahlil qilish, qo‘llanilgan tarjima strategiyalarini aniqlash hamda ularning semantik va pragmatik adekvatligini baholashdan iborat.

TADQIQOT METODLARI

Quyidagi tadqiqotda qiyosiy-tahliliy, tavsifiy, leksik-semantik hamda pragmatik tahlil metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot materiali sifatida No‘mon Ali Xonning *Revive Your Heart* asari va uning o‘zbek tilidagi *Qalbingni uyg‘ot* nomli professional tarjimasi tanlandi. Tahlil uchun asardan diniy termin va formulalarni o‘z ic-

higa olgan to‘qqizta reprezentativ mikromatn tanlab olindi. Ushbu mikromatnlar tarkibida uchraydigan o‘n bitta diniy hamda diniy-madaniy birlik (*ṣabr, duʿā’, rizq, raḥmah, kabā’ir, aḥkām, āyāh, tawāṣī, in shā’ Allāh taʿālā, ʿazza wa-jall* va *moral compass*) tadqiqot obyekti sifatida belgilandi

Qiyosiy tahlil professional tarjima (*Qalbingni uyg‘ot*), OpenAI tomonidan ishlab chiqilgan ChatGPT (GPT-5.5) hamda Google tomonidan ishlab chiqilgan Gemini modeli tarjimalari asosida amalga oshirildi. Tarjimalar 2026-yil 26-iyun kuni bir xil manba matn va bir xil tarjima topshirig‘i (prompt) asosida olindi.

Tarjimalar diniy terminlarning semantik aniqligi, tarjima ekvivalentlarining mosligi, diniy-konseptual mazmunni saqlash darajasi hamda qo‘llangan tarjima yondashuvlari nuqtayi nazaridan baholandi. Tahlil jarayonida tarjimalar o‘zaro qiyoslanib, ular orasidagi o‘xshash va farqli jihatlar aniqlanib, natijalar sifat jihatdan talqin qilindi. Tadqiqot sifat tahlili (qualitative analysis) tamoyillari asosida olib borildi hamda statistik umumlashtirish maqsadini ko‘zlamadi.

NATIJALAR

Revive Your Heart asaridan tanlab olingan diniy terminlarni o‘z ichiga olgan to‘qqizta mikromatn tarkibidagi o‘n bitta diniy va diniy-madaniy birlik professional inson tarjimasi ChatGPT va Gemini tarjimalari asosida qiyosiy tahlil qilindi. Tahlil natijalari diniy terminlarni tarjima qilishda uchala tarjima variantida ham o‘xshashliklar mavjudligini, biroq qo‘llanilgan tarjima strategiyalari va pragmatik yondashuvlarda sezilarli farqlar kuzatilishini ko‘rsatdi. Asosiy tafovutlar o‘rnashgan diniy ekvivalentlardan foydalanish, transliteratsiya, izohli tarjima, umumlashtirish hamda pragmatik moslashtirish strategiyalarida namoyon bo‘ldi.

1-jadval.

Diniy terminlarning professional va sun’iy intellekt tarjimalaridagi ekvivalentlari

№	Diniy termin	Inson tarjimasi	ChatGPT	Gemini
1.	ṣabr	sabr	sabr	sabr
2.	duʿā’	duo	duo	duo
3.	rizq	rizq	rizq	rizq
4.	raḥmah	rahmat	rahmat	rahmat
5.	kabā’ir	gunohi kabiralar	kaboir (katta gunohlar)	kaboir (katta gunohlar)
6.	aḥkām	shariat qoidalari	hukmlar (aḥkām)	hukmlar
7.	āyāh	ko‘rsatmalar	oyat	oyat
8.	tawāṣī	tavaasov	tawāṣī va boshqa terminlar saqlangan	tavosiy va boshqa terminlar saqlangan
9.	in shā’ Allāh taʿālā	tushirilgan	saqlangan	saqlangan
10.	ʿazza wa-jall	Alloh taolo	Alloh taolo (ʿazza va jall)	Alloh (azzavajalla)
11.	moral compass	ilohiy o‘lchov	axloqiy mezon	ma’naviy mezon

Jadval natijalari shuni ko‘rsatadiki, barqaror diniy terminlar uchala tarjima variantida ham yuqori darajada mos ifodalangan bo‘lsa, diniy formulalar va madaniy jihatdan belgilangan birliklarda tarjima strategiyalari sezilarli darajada farqlanadi.

ṣabr, duʿā’, rizq va *raḥmah* terminlari inson tarjimasi hamda har ikkala sun’iy intellekt modeli tomonidan bir xil leksik birliklar yordamida tarjima qilingan. Bu holat mazkur terminlarning o‘zbek diniy diskursida barqaror qo‘llanilishini hamda har ikkala sun’iy intellekt modelining ushbu terminlarni izchil tarjima qila olganini ko‘rsatadi. Bunga qarama-qarshi ravishda *aḥkām, kabā’ir, āyāh, tawāṣī, in shā’ Allāh taʿālā* hamda *moral compass* birliklari tarjimasida inson va sun’iy intellekt modellarining strategiyalari o‘rtasida sezilarli tafovutlar kuzatildi. Quyida ushbu terminlar tarjimasidagi asosiy farqlar tahlil qilinadi.

aḥkām termini tarjimasida inson va sun’iy intellekt modellarining yondashuvlari o‘rtasida sezilarli tafovut kuzatildi. Professional tarjimada ushbu termin *shariat qoidalari* shaklida izohli

tarjima qilingan bo‘lsa, ChatGPT *hukmlar (aḥkām)* variantini qo‘llab, arabcha terminni saqlash bilan birga uning o‘zbekcha ekvivalentini ham keltirgan. Gemini esa terminni *hukmlar* shaklida tarjima qilgan. Mazkur misol professional tarjimada izohli tarjima, sun’iy intellekt modellarida esa terminologik shaklni saqlash ustun bo‘lganini ko‘rsatadi. Shunday qilib, mazkur termin tarjimasida professional tarjimada izohli tarjima, ChatGPTda kombinatsiyalashgan strategiya (arabcha terminni saqlash va ekvivalent berish), Geminida esa qisqaroq leksik ekvivalentdan foydalanish kuzatildi.

Kabā’ir termini tarjimasida ham professional tarjima va sun’iy intellekt modellarining yondashuvlari o‘rtasida muayyan tafovut kuzatildi. Professional tarjimada ushbu termin *gunohi kabiralar* shaklida berilgan bo‘lsa, ChatGPT va Gemini *kaboir (katta gunohlar)* variantini qo‘llagan. Professional tarjimada asliyatdagi izoh alohida aks ifodalanmagan, ChatGPT va Gemini esa arabcha terminni qo‘shimcha semantik izoh bilan ifodalagan. Ushbu holat sun’iy intellekt modellarida terminologik va izoh komponentlarini saqlash ustun bo‘lganini ko‘rsatadi.

āyāh termini tarjimasida ham tarjima yondashuvlaridagi farq yaqqol namoyon bo‘ldi. Professional tarjimada ushbu termin *ko‘rsatmalar* shaklida umumlashtirilgan bo‘lsa, ChatGPT va Gemini uni mos ravishda *oyat* va *oyatlar* tarzida tarjima qilgan. Ushbu holat professional tarjimada terminning umumlashtirish orqali ifodalanganini, ChatGPT va Gemini tarjimalarida esa diniy terminning leksik aniqligi saqlanganini ko‘rsatadi.

tawāṣī termini tarjimasida professional tarjima va sun’iy intellekt modellarining yondashuvlari o‘rtasida sezilarli tafovut kuzatildi. Professional tarjimada asosiy termin *tavaasov* shaklida berilgan bo‘lsa, *tashāruk, taʿāwun* va *taḥāwur terminlari* tarjimaga kiritilmagan. ChatGPT va Gemini esa *tawāṣī* bilan bir qatorda ushbu terminlarni ham saqlab, ularning arab tilidagi bir xil morfologik qolipga mansubligini izohlagan. Natijada sun’iy intellekt modellari asliyatdagi terminologik tizimni va muallifning lingvistik izohini to‘liqroq aks ettirgan. Bu esa professional tarjimada matnni ixchamlashtirish, sun’iy intellekt modellarida esa asliyatdagi terminologik va lingvistik izohlarni to‘liqroq saqlash ustun bo‘lganini ko‘rsatadi.

in shā’ Allāh taʿālā diniy formulasi tarjimasida ham sezilarli tafovut aniqlandi. Professional tarjimada ushbu ibora tushirib qoldirilgan bo‘lsa, ChatGPT va Gemini uni mos ravishda *in shā’ Allāh taʿālā va inshoalloh* shaklida saqlagan. Natijada sun’iy intellekt modellari asliyatdagi diniy formulani tarjima matnida aks ettirgan, professional tarjimada esa diniy formula tarjimada aks ettirilmagan. Mazkur natija diniy formulalarni tarjima qilishda inson va sun’iy intellekt modellarining yondashuvlari o‘rtasidagi farqni yaqqol namoyon etadi.

ʿazza wa-jall ehtirom ifodasi tarjimasida ham ayrim farqlarni kuzatish mumkin. Professional tarjimada ushbu ibora *Alloh taolo* shaklida ifodalangan bo‘lsa, ChatGPT *Alloh taolo (ʿazza va jall)* variantini qo‘llab, o‘zbekcha ekvivalent bilan bir qatorda arabcha iborani ham saqlagan. Gemini esa *Alloh (azzavajalla)* shaklini tanlagan. Natijada har ikkala sun’iy intellekt modeli diniy ehtirom formulasini tarjimada saqlashga intilgan bo‘lsa, professional tarjimada uning o‘zbek tilida qabul qilingan ekvivalenti qo‘llangan. Bu holat diniy ehtirom formulalarini tarjima qilishda turli yondashuvlar qo‘llanilganini ko‘rsatadi.

moral compass birligi tarjimasida professional tarjima va sun’iy intellekt modellarining yondashuvlari o‘rtasidagi eng sezilarli tafovut kuzatildi. Professional tarjimada ushbu birlik *ilohiy o‘lchov* shaklida tarjima qilingan bo‘lsa, ChatGPT *axloqiy mezon*, Gemini esa *ma’naviy mezon* variantlarini qo‘llagan. Natijada professional tarjimada asliyatdagi umumiy axloqiy tushuncha diniy mazmun bilan boyitilgan, sun’iy intellekt modellarida esa birlikning semantik mazmuni diniy jihatdan neytralroq shaklda ifodalangan. Tahlil shuni ko‘rsatdiki, professional tarjimada diniy interpretatsiya kuchaytirilgan, ChatGPT va Gemini tarjimalarida esa asliyatdagi konseptual mazmunni saqlashga ustuvorlik berilganini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, tahlil qilingan mikromatnlar sun’iy intellekt modellarining diniy terminlarni tarjima qilishda yuqori darajadagi semantik aniqlikni ta’minlay olishini ko‘rsatdi. Biroq ayrim terminlar va diniy formulalar tarjimasida professional tarjimada madaniy moslashtirish, sun’iy intellekt modellarida esa manba

matndagi terminologik va konseptual birliklarni saqlash tendensiyasi namoyon bo‘ldi. Tahlil qilingan 11 terminning 4 tasida uchala tarjima deyarli bir xil natija bergan, 7 tasida esa tarjima strategiyalarida sezilarli farqlar kuzatilgan.

MUNOZARA

Tadqiqot natijalari diniy terminlarni tarjima qilishda semantik aniqlikning o‘zi yetarli emasligini, tarjima jarayonida pragmatik va madaniy omillar ham muhim o‘rin tutishini ko‘rsatdi. Xususan, *aḥkām, kabā’ir, āyāh* hamda *moral compass* birliklari tarjimasida professional tarjima va sun’iy intellekt modellarining yondashuvlari o‘rtasida kuzatilgan tafovutlar diniy matnlarda terminning lug‘aviy ma’nosi bilan bir qatorda uning diniy-konseptual mazmunini ham hisobga olish zarurligini tasdiqlaydi. Bu holat diniy terminlarni tarjima qilishda semantik ekvivalentlik bilan bir qatorda pragmatik moslik ham muhim ekanligini ta’kidlagan tadqiqotlar bilan uyg‘unlashadi [Ali et al., 2024; 11-12].

Shuningdek, tadqiqot davomida *ṣabr, duʿā’, rizq* va *raḥmah* kabi o‘zbek diniy diskursida keng qo‘llanadigan terminlar ChatGPT, Gemini va professional tarjimada deyarli bir xil ekvivalentlar orqali ifodalangani qayd etildi. Mazkur natija katta til modellarining o‘zbek tilida qo‘llaniladigan asosiy diniy terminologiyani semantik jihatdan muvaffaqiyatli qayta ishlab bera olishini ko‘rsatadi. Biroq *in shā’ Allāh taʿālā, ʿazza wa-jall* kabi diniy formulalar hamda *tawāṣī* singari izoh talab qiladigan terminlar tarjimasida sun’iy intellekt modellarining asliyatdagi terminologik va izoh komponentlarini ko‘proq saqlashi, professional tarjimada esa ayrim hollarda ixchamlashtirish yoki madaniy moslashtirish aniqlandi. Ushbu natijalar katta til modellarining diniy matnlarni tarjima qilishdagi imkoniyatlari va mavjud cheklovlarini tahlil qilgan tadqiqotlar bilan hamohangdir.

Umuman olganda, olingan natijalar sun’iy intellekt modellarini diniy matnlar tarjimasida mustaqil tarjimon emas, balki professional tarjimon faoliyatini qo‘llab-quvvatlovchi vosita sifatida qo‘llash maqsadga muvofiq ekanini ko‘rsatadi. Ayniqsa, diniy-konseptual mazmun va madaniy-pragmatik xususiyatlarni saqlash zarur bo‘lgan matnlarda yakuniy tarjimani mutaxassis tomonidan tahrir qilish tarjima sifatini oshirishga xizmat qiladi. Mazkur xulosa diniy diskurs tarjimasida lingvistik aniqlik bilan bir qatorda madaniy va kommunikativ moslikni ta’minlash zarurligi haqidagi ilmiy qarashlarni qo‘llab-quvvatlaydi [Shormani, 2025; 10-13; Metwally, 2024; 208-210].

Tadqiqot natijalari shuni ham ko‘rsatdiki, katta til modellari diniy terminlarning lug‘aviy ekvivalentlarini yuqori aniqlik bilan tiklay olsada, madaniy-pragmatik moslashtirish talab etiladigan holatlarda professional tarjimon tajribasi ustunlik qiladi. Shu sababli diniy matnlarni tarjima qilishda sun’iy intellektni mustaqil tarjimon sifatida emas, balki tarjimon faoliyatini qo‘llab-quvvatlovchi vosita sifatida qo‘llash maqsadga muvofiqdir. Ushbu natijalar katta til modellarining diniy matnlarni tarjima qilishdagi samaradorligi terminning turi va uning pragmatik yukiga bog‘liqligini ko‘rsatadi. Barqaror diniy terminlarda yuqori semantik aniqlik kuzatilgan bo‘lsa-da, diniy formulalar va madaniy jihatdan belgilangan birliklarda inson tarjimoni tomonidan amalga oshiriladigan madaniy moslashtirish ustunlik qiladi.

XULOSA

Mazkur tadqiqot ingliz tilidagi diniy terminlarning o‘zbek tiliga professional tarjima hamda sun’iy intellekt modellarida (ChatGPT va Gemini) qanday ifodalanishini qiyosiy jihatdan tahlil qilish imkonini berdi. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, o‘zbek diniy diskursida keng qo‘llanadigan ṣabr, duʿā', rizq va raḥmah kabi terminlar uchala tarjima variantida ham semantik jihatdan izchil ifodalangan. Shu bilan birga, *aḥkām, kabā’ir, āyāh, tawāṣī, in shā’ Allāh taʿālā, ʿazza wa-jall* hamda *moral compass* birliklari tarjimasida qo‘llanilgan yondashuvlarda sezilarli tafovutlar kuzatildi.

Tadqiqot natijalari professional tarjimada diniy-madaniy moslashtirish va o‘quvchi uchun tabiiy ifodani ta’minlash ustunroq ekanini, sun’iy intellekt modellarida esa manba matndagi terminologik birliklar hamda diniy formulalarni saqlashga ko‘proq e’tibor qaratilganini ko‘rsatdi. Ayniqsa, diniy formulalar va izoh talab qiladigan terminlar tarjimasida ushbu yondashuvlar o‘rtasidagi farqlar yaqqol namoyon bo‘ldi.

Shunday qilib, sun’iy intellekt modellaridan diniy matnlarni tarjima qilishda samarali yordamchi vosita sifatida foydalanish mumkin. Biroq diniy-konseptual mazmun, madaniy xusu-

siyatlar va pragmatik nozikliklarni to‘liq saqlash zarur bo‘lgan hollarda professional tarjimon ishtiroki muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalari ingliz tilidan o‘zbek tiliga diniy matnlarni tarjima qilish amaliyotini takomillashtirish hamda sun’iy intellekt vositalarining tarjimashunoslikdagi imkoniyatlarini baholash bo‘yicha keyingi tadqiqotlar uchun ilmiy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Tadqiqot faqat bitta asar hamda cheklangan miqdordagi diniy terminlar asosida olib borilganligi sababli olingan natijalarni barcha diniy matnlarga umumlashtirish ehtiyotkorlik bilan amalga oshirilishi lozim. Bundan tashqari, katta til modellarining o‘zbek tilidagi diniy matnlar tarjimasida yuqori semantik salohiyatga ega ekanligini, biroq madaniy-pragmatik adekvatlikni ta’minlashda professional tarjimonning ishtiroki zarurligini ko‘rsatdi.

ADABIYOTLAR

1. Ali, S., Jarrah, M., & Al-Jabri, H. *When the Context Has the Upper Hand: The Translation of Religious Expressions*. SKASE Journal of Translation and Interpretation. 2024. Vol. 17. No. 2. B. 4–28.
2. Baker, M. *In Other Words: A Coursebook on Translation*. London: Routledge, 1992.
3. Khan, N. A. *Qalbingni uyg‘ot* / Tarj. va nashrga tayyorlovchilar: Muhammad Shox Ibrohim, Komil Umar. Toshkent: Kitobdornashr, 2023.
4. Khan, N. A. *Revive Your Heart: Putting Life in Perspective*. Leicestershire: Kube Publishing, 2017.
5. Metwally, M. *Artificial Intelligence and Human Translation in Religious Discourse: Challenges and Opportunities*. International Journal of Language and Literary Studies. 2024. Vol. 6. No. 2. B. 198–214.
6. Mukhamadiyev, M., va boshq. *Uzbek Language Resources and Large Language Models: Current Challenges and Future Directions*. Sensors. 2023. Vol. 23. No. 3.
7. Newmark, P. *A Textbook of Translation*. New York: Prentice Hall, 1988.
8. Nida, E. A., & Taber, C. R. *The Theory and Practice of Translation*. Leiden: E. J. Brill, 1969.
9. Sharipov, A., va boshq. *UzLUE: Benchmarking Language Understanding for Uzbek*. In: Proceedings of the 29th International Conference on Computational Linguistics. 2022. B. 1–12.
10. Shormani, M. Q. *Artificial Intelligence and the Translation of Islamic Religious Texts: Opportunities and Limitations*. SAGE Open. 2025. Vol. 15. No. 1.
11. Siu, S. C. *Revolutionising Translation with AI: Unravelling Neural Machine Translation and Generative Pre-trained Large Language Models*. In: Peng, Y., & Huang, H. (Eds.). *New Advances in Translation Technology*. Singapore: Springer, 2024. B. 29–54.

REFERENCES

1. Ali, S., Jarrah, M., & Al-Jabri, H. (2024). *When the Context Has the Upper Hand: The Translation of Religious Expressions*. *SKASE Journal of Translation and Interpretation, 17*(2), 4–28.
2. Baker, M. (1992). *In Other Words: A Coursebook on Translation*. London: Routledge.
3. Khan, N. A. (2023). *Qalbingni uyg‘ot* [*Awaken Your Heart*] (M. Sh. Ibrohim & K. Umar, Trans.). Tashkent: Kitobdornashr.
4. Khan, N. A. (2017). *Revive Your Heart: Putting Life in Perspective*. Leicestershire, UK: Kube Publishing.
5. Metwally, M. (2024). Artificial Intelligence and Human Translation in Religious Discourse: Challenges and Opportunities. *International Journal of Language and Literary Studies, 6*(2), 198–214.

6. Mukhamadiyev, M., et al. (2023). *Uzbek Language Resources and Large Language Models: Current Challenges and Future Directions*. *Sensors, 23*(3).
7. Newmark, P. (1988). *A Textbook of Translation*. New York: Prentice Hall.
8. Nida, E. A., & Taber, C. R. (1969). *The Theory and Practice of Translation*. Leiden: E. J. Brill.
9. Sharipov, A., et al. (2022). *UzLUE: Benchmarking Language Understanding for Uzbek*. In *Proceedings of the 29th International Conference on Computational Linguistics* (pp. 1–12).
10. Shormani, M. Q. (2025). *Artificial Intelligence and the Translation of Islamic Religious Texts: Opportunities and Limitations*. *SAGE Open, 15*(1).
11. Siu, S. C. (2024). Revolutionising Translation with AI: Unravelling Neural Machine Translation and Generative Pre-trained Large Language Models. In Y. Peng & H. Huang (Eds.), *New Advances in Translation Technology* (pp. 29–54). Singapore: Springer.